

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
rektori

O.Sh.Bazarov

2024 y

Rajxatga olindi № 05/02/002 S
2024 yil 7 iyun

DAVLAT MOLIYASI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi	400000 – Biznes boshqaruv va xuquq
Talim sohasi	410000 – Biznes va boshqaruv
Talim yo'nalishi	60410400 - Moliya va moliyaviy texnologiyalar

Qarshi – 2024 yil

Fan/modul kodi ES	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 9	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	DAVLAT MOLIIYASI	36	234	270
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassisbo'lib etishadigan talabalarda davlat moliyasi yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish va chuqurlashtirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarni davlat moliyasi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, davlat moliya munosabatlarini tashkil qilishdagi iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. "Davlat moliyasi" faniniga kirish. Davlat moliyasining mohiyatiga ahamiyati</p> <p>Fanning predmeti, asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari. Fanni o'rganishning zarurligi. "Davlat moliyasi" fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni va ahamiyati. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Fanning oldida turgan muammolar. Fan sohasidagi ilmiy maktablar, ularning namoyandalari va ilmiy qarashlari. Davlat moliyasining mohiyati va ahamiyati. Davlat moliyasi orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadqiyimatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Davlat moliyasining mamlakatdagi iqtisodiy holatga bog'liqligi. Mamlakat iqtisodiy holatinibaholash: yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot va milliy daromad, inflyatsiya. Davlat moliyasining funksiyalari, ularning davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi. Davlat moliyasining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o'rni va ahamiyati. Davlat moliyasining mamlakat moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Davlat moliyasi to'g'risidagi nazariyalar</p> <p>Turli davr va iqtisodiy maktablar namoyandalarining davlat moliyasiga oid nazariyalari. Siyosiy iqtisod klassiklari kontseptsiyalarining moliyaviy jihatlari. Davlat moliyasining markschilar asarlaridagi talqini. Keyns moliyaviy kontseptsiyasining asosiy g'oyasi. Neokeynschilar nazariyalarining moliyaviy jihatlari. Iqtisodiy o'sish nazariyasining asosiy mazmuni. Fiskal antitsiklik nazariyaning asosiy g'oyasi. "Defitsitli moliyalashtirish" va "byudjetni tsiklik balanslashtirish" nazariyalarining asosiy belgilari. Yangi klassik nazariyalarning moliyaviy jihatlari. "Taklif iqtisodiyoti" nazariyasidagi yangi yo'nalishning asosiy</p>			

mazmuni. A.Lefferning soliq kontseptsiyasi.

3-mavzu. Davlat moliyasi tizimi

Davlat moliyasi tizimi, uning tarkibi va tuzilishi. Davlat moliyasi tarkibida davlat byudjetining tutgan o'rnini va ahamiyati. Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar. Mahalliy moliya, mazmuni, tarkibi va tuzilishi. Davlat krediti va davlat qarzini boshqarish. Davlat korxonalar moliyasi, mazmuni, shakllari, xususiyatlari. Davlat moliyasi bo'g'ularining o'zaro bog'liqligi.

4-mavzu. Davlat moliyasi amal qilishining huquqiy asoslari

Davlat moliyasi amal qilishining huquqiy asoslari. Moliya qonunchiligi va moliya huquqi. Davlat moliyaviy munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy- huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – davlat moliyasini tashkil qilishning huquqiy asosi sifatida. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, uning mazmuni, byudjet munosabatlarini tartibga solishdagi ahamiyati. Soliq kodeksi, uning ahamiyati. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy moliyani boshqarishdagi huquq va majburiyatlari. Davlat moliyasi qonunchiligidagi so'nggi o'zgarishlar. Davlat moliya tizimidagi islohotlar sharoitida davlat moliyasi huquqiy asoslarining mustahkamlanishi.

5-mavzu. Davlatning moliya siyosati va davlat moliyasini boshqarish

Davlat moliyasi – davlat iqtisodiy siyosatining quroli sifatida. Davlat moliya siyosatining taktikasi va strategiyasi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy siyosatining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. Mamlakatni moliyaviy sog'lomlashtirish, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda mamlakatni madaniy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan davlat moliyaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari. Davlat daromadlari va xarajatlarini boshqarish va tartibga solishdagi siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy soliq siyosati va uning dastak-vositalari. Davlat moliyaviy siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari. Davlat moliyasini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari va subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat moliyasini boshqarish sohasidagi vakolatlari. Markaziy va mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining davlat moliyasini boshqarishdagi ishtiroki.

6-mavzu. Davlat byudjeti

Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari. Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Davlat byudjeti – davlat ixtiyoridagi markazlashgan pul fondi sifatida. Davlat byudjetining daromadlari tizimi. Davlat byudjetining xarajatlari tizimi. Davlat byudjetining holatlari. Byudjet jarayoni va uni tashkil etish.

7-mavzu. Davlatning maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalari

Davlat maqsadli jamg'armalarining zarurligi, mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Davlat maqsadli jamg'armalarining turlari, tashkiliy-huquqiy asoslari, daromadlari va xarajatlari, faoliyatini samarali boshqarish masalalari. Davlat maqsadli jamg'armalari daromad bazalarini mustahkamlash va xarajatlarini optimallashtirish. Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatining rivojlanish istiqbollari.

8-mavzu. Davlat krediti va davlat qarzlarini boshqarish

Davlat krediti tushunchasi, iqtisodiy mazmuni va tarkibiy tuzilishi. Davlat qarzi, ichki va tashqi qarzlar. Davlat – qarzdor, kafil (garant) va kreditor sifatida. Davlat tomonidan mablag' jalb qilish va uning turlari. O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari. O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog'ozlari va ularning tasnifi. Byudjet ssudalari, kredit liniyalari va kreditlar. Davlat qarzini qaytarishdagi (davlat qarziga xizmatko'rsatishdagi) davlat xarajatlari. Davlat qarzini samarali boshqarish. Xorijiy davlatlarda davlat qarzi, yuzaga kelishi, davlat qarzini boshqarish va tartibga solish masalalari.

9-mavzu. Mahalliy moliya va mahalliy byudjetlar

Mahalliy moliyaning mazmuni, tarkibi va vazifalari. Mahalliy byudjetlar, ularning guruhlanishi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash. Mahalliy maxsus jamg'armalar, ularning zarurligi, shakllanish manbalari va sarflash yo'nalishlari. Mahalliy korxonalar moliyasi – mahalliy moliyaning tarkibi sifatida. Mahalliy moliyaning rivojlanish istiqbollari.

10-mavzu. Davlat korxonalari moliyasi

Davlat korxonalari to'g'risida tushuncha. Davlat korxonalarining tashkiliy shakllari. Davlat unitar korxonasi. Davlatning ishtirokidagi qo'shma korxonalar. Byudjet tashkilotlari va muassasalari. Davlat korxonalari moliyasining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari. Davlat korxonalarida asosiy kapitalning shakllanishi va ko'paytirilishi. Korxonalar daromadlari, xarajatlari. Korxonalar asosiy va aylanma fondlarining doiraviy aylanishida moliyaning o'rni. Davlat korxonalarida foyda, uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi. Korxonalar pul fondlarining shakllanishi va taqsimlanishi. Byudjet tashkilotlari, ular moliyasining o'ziga xos xususiyatlari. Xorijiy davlatlarda davlat korxonalari moliyasining xususiyatlari.

11-mavzu. Davlat moliyasining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida davlatning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyaviy ta'minlash masalalari. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, mazmuni, amalga oshirish chora- tadbirlari, moliyaviy manbalari.

12-mavzu. Davlat moliyasining investitsion jarayonlarga ta'siri

Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning o'ri va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda davlat moliyasining o'ri. Iqtisodiyotga ichki investitsiyalarni jalb qilish masalalari. Iqtisodiyotning rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini oshirish. Iqtisodiyot tarmoqlarini markazlashmagan investitsiyalar hisobidan rivojlantirish. Mamlakatda investitsion muhitni shakllantirish va yaxshilash mexanizmlari.

13- mavzu. Davlat moliyasining jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o'ri va ahamiyati

Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida davlat moliyasining o'ri va ahamiyati. Ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy va moliyaviy negizlari. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida davlatning ijtimoiy rivojlanish dasturlarini moliyaviy ta'minlash masalalari. Ijtimoiy dasturlar, ularning yo'nalishlari, moliyalash manbalari.

14- mavzu. Davlat moliyasi tizimida ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot

Ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning mazmuni, ahamiyati, davlat moliyasi tizimidagi o'ri. Ijtimoiy sug'urtaning iqtisodiy asoslari. Ijtimoiy ta'minot, shakllari, moliyaviy manbalari. Ijtimoiy sug'urta fondlari, ularning shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari.

15- mavzu. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Davlat moliyasi huquqiy asoslarining takomillashuvi. Davlatning moliyaviy xavfsizligi, mezonlari, omillari. Davlat moliyasi barqarorligini oshirish masalalari. Strategik rivojlanish va uning moliyaviy asoslari. Davlat korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy manbalarini mustahkamlash. Byudjet tashkilotlarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tkazish. Mahalliy moliyani mustahkamlash. Mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Davlat moliyasi" faniniga kirish. Davlat moliyasining mohiyati va ahamiyati
2. Davlat moliyasi to'g'risidagi nazariyalar
3. Davlat moliyasi tizimi
4. Davlat moliyasi amal qilishining huquqiy asoslari
5. Davlatning moliya siyosati va davlat moliyasini boshqarish
6. Davlat byudjeti
7. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalari
8. Davlat krediti va davlat qarzlarini boshqarish
9. Mahalliy moliya va mahalliy byudjetlar

10. Davlat korxonalari moliyasi
11. Davlat moliyasining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyati
12. Davlat moliyasining investitsion jarayonlarga taʼsiri
13. Davlat moliyasining jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati
14. Davlat moliyasi tizimida ijtimoiy sugʻurta va ijtimoiy taʼminot
15. Oʻzbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yoʻnalishlari

IV. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar

Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. “Davlat moliyasi” faniniga kirish. Davlat moliyasining mohiyati va ahamiyati
2. Davlat moliyasi toʻgʻrisidagi nazariyalar
3. Davlat moliyasi tizimi
4. Davlat moliyasi amal qilishining huquqiy asoslari
5. Davlatning moliya siyosati va davlat moliyasini boshqarish
6. Davlat byudjeti
7. Davlatning maqsadli va byudjetdan tashqari jamgʻarmalari
8. Davlat krediti va davlat qarzlarni boshqarish
9. Mahalliy moliya va mahalliy byudjetlar
10. Davlat korxonalari moliyasi
11. Davlat moliyasining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyati
12. Davlat moliyasining investitsion jarayonlarga taʼsiri
13. Davlat moliyasining jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati
14. Davlat moliyasi tizimida ijtimoiy sugʻurta va ijtimoiy taʼminot
15. Oʻzbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yoʻnalishlari

Mustaqil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan ilmiy loyiha, xulosalash, darajali testlar, glossariy, tarqatma materiallar, taqdimot tayyorlash hamda ilmiy tezis va maqola yozish, shuningdek, mustaqil taʼlim mavzusi yuzasidan “Keys-Study”larni guruhlariga boʻlingan holda bajarishtavsiya etiladi

3. **V. Fan oʻqitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni oʻzlashtirish natijasida talaba:

– davlat moliyasining mohiyati, uning zarurligi, davlat moliyasi tizimi, davlat moliyasi nazariyalari, davlat moliya siyosatining mazmuni, vazifalari, rivojlanish bosqichlari, davlat moliyasi tizimini boshqarish va tartibga solish asoslari, davlat byudjetini, davlat maqsadli jamgʻarmalarini shakllantirish, ular mablagʻlaridan foydalanishni tashkil etish shakllari haqida **tasavvurga egaboʻlishi;**

– davlat moliyasi rivojlanishining qonuniyatlarini, davlat moliyasi holatini baholash va tahlil qilishni, davlat moliyasi rivojlanishi istiqbolini belgilash asoslarini, Oʻzbekiston Respublikasining moliya qonunchiligi asoslarini, davlat moliyasining asosini tashkil etuvchi barcha darajadagi byudjetlar ijrosini tashkilotish nazariyasi va amaliyotini, davlat moliyasini tashkil etish tamoyillarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

– davlat moliyasi ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, ularni tahlil etish, davlat moliyaviy nazorati, davlat kreditini boshqarish, mahalliy moliyani tashkil etish, byudjet tizimi byudjetlari faoliyatini tartibga solish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini davlat tomonidan moliyalashtirish va ijro ko'rsatkichlarini tahlil etish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi;

– davlat moliyasi tizimidagi hisobotlarni tuzish va tahlil etish, ijro natijalarini hisob-kitob qilish, davlat moliyasi tizimida axborot tizimlaridan foydalanish, davlat moliyasi amaliyotiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish, davlat moliyasining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha malakalarga ega bo'lishi kerak.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so'rov o'tkazish.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.

6. Adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Nurmuxamedova B.I., Xamdamov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 436 b.
2. Жиянова Н.Э., Ташматова Р.Г. Государственные финансы. Учебник – Т.: Nihol-Print, 2022г. 320 с.
3. Юлдашева Н.В. Государственный бюджет. Учебное пособие – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2021 г. 457 с.
4. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod- moliya", 2018. - 576 b.
5. Mamatov B.S., Xamdamov Sh.K., Tursunov J.P. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamgarmalar. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 344 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Жиянова Н.. Управление государственными финансами: Учебное пособие. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019 г. – 384 стр.
2. Жиянова Н., Ташматова Р. Бюджетно-налоговая политика: Учебное пособие. – Т.: " IQTISOD-MOLIYA", 2019 г. – 216 стр.

	<p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2. www.imn.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi rasmiy sayti. 3. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. 4. www.openbudget.uz - O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portali. <p>www.scopus.com - xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi</p>
7.	<p>Fan dasturi QarMII Iqtisodiyot fakulteti Kengashining 2024yil ----- avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2024 yil -----avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan fan dasturlarini o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Z.I.Ruziyev – QarMII “Moliya” kafedrasida dotsenti, i.f.n.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>G'.F.Qo'chqorov – QarDU, “Iqtisodiyot” kafedrasida professori, iqtisod fanlari nomzodi, (turdosh OTM)</p> <p>G.T.Samiyeva – QarMII, “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD).</p>